

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

Suv xo‘jaligi sohasida ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish – soha xodimlarining eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridir.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 91 ta hujjati orqali 958 ta topshiriq nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 49 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan va 12 ta topshiriqning muddatini uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining tegishli Rayosat bayonlari bilan ijro muddatlarini uzaytirish ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 225 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 31 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan.

Joriy yilning avgust oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan jami 51 ta Prezident topshiriqlarining 20 tasi (39,2%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

Joriy yilning avgust oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan jami 17 ta Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarining 6 tasi (35,3%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

Shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 035 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 665 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 370 tasida ham ijrochi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 199 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 115 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 84 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlarida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi